



## ASQAD MUXTOR SHE'RIYATIDA INSON HISSIYOTI TASVIRI

**Shermamatova Navbahor Orifjon qizi**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal'a pedagogika fakulteti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Asqad Muxtorning shoirlik mahorati, she'rlaridagi o'ziga xoslik va milliylik tarannumi, inson kechinmalarining nozik ta'riflari bayonoti haqida to'xtalib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: kechinma, badiiy til, nazm, idrok, muhabbat, kitob, qofiya, ritm, ohang, och qofiya, to'liq qofiya.*

Asqad Muxtor nafaqat nasrda, balki nazmda ham ko'plab yutuqlarga erishgan. "99 miniatyura", "She'rlar", "Sirli nido" va boshqa kitoblariga kirgan nazmlari bilan o'zbek poeziyasining boy imkoniyatlarini namoyish qildi. Ijodiy faoliyati davomida "Po'lat quyuvchi", "Hamshaharlarim", "Rahmat, mehribonlarim", "Chin yurakdan", "99 miniatyura", "Karvon qo'ng'irog'i", "She'rlar", "Quyosh belanchagi", "Sizga aytar so'zim", "Sirli nido" singari she'riy kitoblarni yozgan. Deyarli barcha she'rda och qofiyadan foydalagan. Inson hissiyotlarining eng oliysi bo'lgan muhabbat mavzusida ham badiiy tilning go'zalligini she'riyatga xos tarzda go'zal ta'riflagan. She'rlarida rang-baranglik ustuvor. Ayniqsa, his tuyg'ular borasida shoir qalamining o'tkirligi yaqqol namoyon bo'ladi. Misol tariqasida "Sizga aytar so'zim" she'riy to'plamidan joy olgan "Aslida to'g'ri" (ratsionalistik she'rini keltirishimiz mumkin:

Tirmashib oladi ba'zan o'ylarning  
Yopishqoq, bekorchi, mash'umi,  
Shunda ta'kidlaymiz biz o'zimizga  
"O'ylama, o'ylama, o'ylama shuni!"

Odam hamon o'ylar, o'yni quvolmay  
O'zi biladiki yo'qdir keragi  
Ajab, hayot bilan singishib ketmoqda  
Aql-u idrok halal beradi.

Badiiy jihatdan olganda, inson hayolot olami cheksiz ummon. Bu ummonda bahaybat kitlardan tortib, mayda baliqlargacha birgalikda suzgani kabi, inson hayolotida ham shoir ta'kidlaganidek, "yopishqoq, bekorchi, mash'um" va foydali, qiziqarli va kerakli o'ylar ham birgalikda suzadi. Biroq inson hayoti davomida har doim ham o'y surish kerakli hisoblanmaydi. Shu jihatni shoir go'zal mahorat bilan ifodalab bergan. Inson o'zidagi boshqa hislarni boshqarishi mumkin, ammo o'y



surishni o'z ixtiyori bilan boshqara olmaydi. Buni inson o'zi bilsa-da, o'ylama deya ta'kidlaydi, zotan bumming iloji yoq.

Ajab, hayot bilan bir butun bo'lmoqda  
Aqlu idrok xalal beradi.  
Mast qilganda bo'sa lazzati,  
Dilni favqulotda quvonch yayratsa,  
Yoki yo'lda bir zum to'xtab tursak  
Tong husniga qolib hayratda,  
Sog'inganda visol damlarida  
Bebosh hislar bilan yurak oziqsa,  
Bunday mahallarda birdan kelib qolgan,  
Har qanday aqlli fikr ortiqcha.  
Hayot mohiyati tog'risida bizga  
Savollar beradi aqlimiz yakkash,  
Hislar esa yashash kerak deydi  
Javobi ham shudir: yashash va yashash

Shoir inson his – tug'ularini tariflar ekan, ular orasida eng buyugi bolgan muhabbat insonni chulg'ab olgan bir paytda aqlga har qanday kerakli o'ylar ham ortiqcha ekanini ta'kidlaydi. Bunday damda inson o'zida misli ko'rilmagan quvonch, hayrat his etadi. Shunday paytda aql va idrok insonga halaqit beradi deya ta'riflaydi. Shoir ta'riflari orqali shu narsa aniq boladiki, inson aqli cheksizlik kabidir, uning chegarasini qidirish aqlga zid. Biroq aqlimiz bizga shunday paytda ham savol berishda to'xtamay, hayot mohiyatini anglashga urinadi va aniq aytishimiz mumkinki hayot mohiyati faqatgina yashash ekanini hayotning o'zi aytadi faqatgina yashash.

Shoir ijodidadi ushbu she'ning turoqlanishi ham o'ziga xos. Uch qatori 6+5 shaklida turoqlangan bo'lsa, bir qatori 4+5 shaklida turoqlangan. So'zlardagi uyg'unlik och qofiyani tashkil etadi. Turoqlar soniga nisbatan ta'riflaganda, aralash turoqlanish hosil bo'lgan. Asqad Muxtor ijodiyotining asosiy jihati ham shunda. Birgina she'ri orqali ifodalash qiyin.

Yaylov oqshomining epkini ildam,  
Yulg'un keragalar asta g'irchillar  
Kun bo'yi egardan tushmay tolsa ham  
Tun yana bezovta yosh yilqichilar.

Oqshom ko'rinishda osuda so'lim

# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 3 Issue: 2

Lekin u bir olam o‘y, sir saqlaydi.

Ingichka kishnasa uzoqda qulun

Biyaning ko‘zida yulduz chaqnaydi.

Ko‘rinib turganidek inson orzu niyatlari oddiy tun tasviri orqali ifodalangan. Ba’zi insonlarning tunda o‘ylari ravshanlashib, biya misol ko‘zi yarqiraydi. Ba’zi insonlarning esa qulun singari orzu niyatlari ingichka ovozda qolib ketadi. Xulosa qilib aytganda, shoir ta’riflari boshqalarnikidan mutlaqo farq qiladi. Har bir ta’rifida o‘zgachalikhissiyot va haqiqat uyg‘unligi qalbining muhabbatga va haqiqatga oshnoligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog‘aev O. Asqad Muxtor. Toshkent. “Toshkent”, 1966
2. Saimov B. Asqad Muxtor prozasi .Toshkent. “Fan”, 1969.
3. <https://kh-davron.uz>